

YENGIL SANOAT MUHANDISLIGI MUTAXASSISLIGIGA O'QITISHNI TIZIMLASHTIRISH

Abduraximova Manzura Sodiqovna

Farg'ona davlat texnika universiteti

Yengil sanoat muhandisligi kafedrasida tayanch doktoranti

E-mail: manzuraabduraximova5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi mutaxassisligini o'qitishda tizimlashtirishning zamonaviy yondashuvlari va pedagogik texnologiyalari ko'rib chiqilgan. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, innovatsion ta'lim vositalari, hamda nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligi orqali mutaxassis tayyorlashning samarali mexanizmlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: yengil sanoat, texnologiya, tizimlashtirish, kompetensiya, integratsiya, mutaxassis tayyorlash.

Kirish. Bugungi kunda yengil sanoat sohasining jadal rivojlanishi sohaga malakali va zamonaviy bilimga ega kadrlarni tayyorlashni talab qilmoqda. Ayniqsa, “**Yengil sanoat muhandisligi**” kabi muhim ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'qitish jarayonini tizimlashtirish — sifatli kadrlar yetishtirishning poydevoridir. Oliy ta'lim tizimida bu mutaxassislik bo'yicha o'qitish strategiyasi amaliyotga yo'naltirilgan bo'lishi, zamonaviy ishlab chiqarish talablariga mos keladigan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishi zarur [1].

Asosiy qism.

1. Tizimlashtirishning nazariy asoslari:

Tizimlashtirish deganda ta'lim jarayonini maqsadli, bosqichma-bosqich va funksional jihatdan mukammal tashkil etish tushuniladi. Yengil sanoat sohasidagi o'quv dasturlari quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

- Modullilik va moslashuvchanlik;
- Kasbiy kompetensiyalar asosida o'quv rejasini tuzish;
- Amaliyotga integratsiyalashgan o'quv jarayoni.

Tizimlashtirish o'quvchi-talabalar bilimini izchil oshirish, ularni mustaqil tahlil qilishga o'rgatish va amaliy loyihalarda faol ishtirok ettirish imkonini beradi [2].

2. Kompetensiyaviy yondashuv:

Bugungi ta'lim tizimida **kompetensiyaviy yondashuv** asosiy o'rinni egallaydi. Bu yondashuvda faqat bilim berish emas, balki:

- Mustaqil qaror qabul qilish;
- Innovatsion texnologiyalardan foydalanish;
- Mehnat bozorida kerakli ko'nikmalarga ega bo'lish, kabi jihatlar muhim hisoblanadi [5].

Masalan, "To'qimachilik materiallari texnologiyasi", "Tikuv jarayonlari avtomat-lashtirilishi", "Tikuv buyumlarini loyihalashning avtomatlashtirilgan tizimi" va shu kabi zamonaviy fanlar kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi [3].

3. Ta'limning innovatsion shakllari:

Zamonaviy texnologiya va modullashtirilgan dasturlarlar asosida o'quv jarayonini takomillashtirish uchun quyidagi vositalar ishlatiladi:

- Virtual laboratoriyalar;
- CAD/CAM tizimlari (kompyuter yordamida loyihalash);
- 3D kiyim modellashtirish dasturlari (CLO, Optitex);
- Raqamli platformalarda masofaviy ta'lim modullari (Moodle, Google Classroom).
- Ushbu texnologiya va modulli dasturlar yordamida talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish, real ishlab chiqarish muhitiga moslashishini ta'minlash mumkin [4].

Ta'limning innovatsion usullari – bo'lim jarayonining zamonaviy, ilg'or texnologiyalar va metodologiyalarni qo'llagan holda, samaradorlikni ta'minlash, o'quvchilarning motivatsiyasini va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yangi usullardir. Bunday shakllar an'anaviy ta'lim uslublarini yangi va modernizatsiya qilish yo'llangan bo'lib, turli texnologiyalar, pedagogik vositalar va o'quv usullaridan o'rnatish.



1-rasm. Zamonaviy dasturlar asosida o‘quv jarayonini amalda qo‘llash.

4. Ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi:

Mutaxassis tayyorlashda nazariya va amaliyotni uzviy bog‘lash eng muhim omillardan biridir. Bu borada:

- Korxonalarda dual ta’lim dasturlarini joriy qilish;
- Texnikum va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida uzviy hamkorlik;
- Ishlab chiqaruvchilarning o‘quv rejalari ishlab chiqilishida ishtiroki, alohida ahamiyat kasb etadi .

Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi mutaxassisligini o‘qitishda tizimlashtirishning zamonaviy yondashuvlarni, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirgan, innovatsion ta’lim vositalarini, hamda nazariy va amaliy bilimlar uyg‘unligi orqali mutaxassis tayyorlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va bugungi korxonalar uchun zamonaviy bilimlarni egallagan mutaxassislarni o‘qitishni tizimlashtirish zarur masalalardan biri hisoblanadi [6].

Xulosa. Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi mutaxassisligini o‘qitishni tizimlashtirish — raqobatbardosh, bilimli, tajribali va moslashuvchan mutaxassislar yetishtirishda muhim omildir. Tizimlashtirilgan o‘qitish orqali nafaqat nazariy bilimlar, balki real ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan kasbiy kompetensiyalar shakllantiriladi. Bu esa yengil sanoatning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova Z.X. Kasbiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: TDPU, 2021. – 208 b.
2. Raxmonov B.A. Yengil sanoat texnologiyasi asoslari. – Samarqand: SamDTI, 2020. – 178 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-son qarori. Yengil sanoat sohasida mutaxassislar tayyorlashni takomillashtirish to'g'risida, 2018 yil.
4. Yusupova D.T. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. // "Pedagogik ta'lim" jurnali. – 2022. – №3. – B. 45–51.
5. Sadiqovna, A. M. (2022). Determining the Type of Clothing Suitable for Women With An Non Typical Figure. Texas Journal of Engineering and Technology, 10,22-26.
6. Ш.С. Турсуматова, М.С.Абдурахимова- Развитие легкой промышленности в Узбекистане: тренды, вызовы и перспективы. Scientific-technical journal (STJ FerPI, ФарПИ ИТЖ, НТЖ ФерПИ, 2024,Т.28. спец.выпуск №14.180-182с.